



**RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN BOSHLANG'ICH TA'LIMDA  
FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI**

**QODIROVA XADICHABONU MENGTOH QIZI**

SURXONDARYO VILOYATI SHEROBOD

TUMANIDAGI 37- SONLI MAKTABNING

BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHISI

**NORMURODOVA HULKAR TURDIMURODOVNA**

37- SONLI MAKTAB BOSHLANG'ICH

SINF O'QITUVCHISI

**ANNOTATSIYA:** Mazkur maqolada raqamli texnologiyalardan boshlang'ich ta'limda foydalanishning afzalliklari va ehtimoliy kamchiliklari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, raqamli texnologiya tushunchasi, raqamli texnologiyalarning turlari haqida aytib o'tilgan. Maqolada boshlang'ich ta'lim o'quvchilariga raqamli texnologiyalar asosida dars o'tishning foydali jihatlari yoritib berilgan.

**KALIT SO'ZLAR:** Raqamli texnologiya, o'yinlar, boshlang'ich ta'lim, o'yinlashgan platformlar, virtual dasturlar.

**ABSTRACT:** This article provides information on the advantages and potential disadvantages of using digital technologies in primary education. It also mentions the



concept of digital technology and its types. The article highlights the beneficial aspects of teaching primary school students using digital technologies.

**KEYWORDS:** Digital technology, games, primary education, gamified platforms, virtual programs.

**АННОТАЦИЯ:** В данной статье представлены сведения о преимуществах и возможных недостатках использования цифровых технологий в начальном образовании. Также упомянуты понятие цифровых технологий и их виды. В статье освещены полезные аспекты преподавания ученикам начальных классов на основе цифровых технологий.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** Цифровые технологии, игры, начальное образование, геймифицированные платформы, виртуальные программы.

## KIRISH

Bugungi kunda ta'lim va texnologiyalarning rivojlanishi natijasida har bir sohada yetarlicha ijobiy o'zgarishlar ko'zga tashlanmoqda. Ayniqsa bu borada boshlang'ich ta'lim yo'nalishini rivojlantirish ham ahamiyatli bo'lib bormoqda. Taraqqiyot strategiyasining ta'limga oid vazifalarini amalga oshirish borasida boshlang'ich ta'limni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Bunda samarali o'qitishning turli xil uslublaridan, metodikalaridan foydalanish va asosan raqamli texnologiyalardan foydalanish dolzarb masalaga aylanib ulgurdi. Raqamli texnologiyalardan foydalangan holda bolalarning nutqini rivojlantirish uchun asosan rivojlanish o'yinlari qo'llaniladi, shuning uchun dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqarishda asosiy talablarni tavsiflash kerak, xususan: -bolaning individual xususiyatlarini hisobga olish kerak; - amaldagi o'yinlar bolalarning yoshiga mos bo'lishi kerak.



Boshlang'ich ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarni joriy etishning ahamiyati, bu texnologiyalarning kognitiv rivojlanishiga ta'siri va ularni amaliy qo'llash usullari samarali bo'lishi kutilmoqda. Ushbu mavzuda bugungi kunda pedagogik faoliyatni innavatsion yondashuvlar bilan boyitish va o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishda dolzarb masala hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirish uchun rivojlanish dasturlaridan foydalanish tayyorgarlik qismida bolani faol faoliyatga jalb qilishni o'z ichiga oladi: tanlovlar, kuzatishlar, o'yin muhiti, kompyuter o'yiniga tayyorgarlik ko'rish uchun suhbatlar. Asosan yo'nalish to'g'ridan-to'g'ri kompyuter bilan mustaqil ishlashga qaratilgan bo'lib, maktabgacha yoshdagi bola har bir tugmachaning maqsadini, algoritm (karta sxemasi) yordamida dasturiy mahsulotni qanday boshqarish kerakligini bilishi tushuniladi.

Maqolada raqamli texnologiyalarning turlari haqida ham biroz to'xtalib o'tish joiz.

#### ✓ Raqamli texnologiya turlari

Boshlang'ich ta'limda qo'llanishi lozim bo'lgan raqamli texnologiyalarning bir necha turlari mavjud. Bu borada raqamli texnologiyalarning eng asosiy quyidagi turlarini eslatib o'tamiz:

- 1) kompyuterli dasturga asoslangan o'qitish raqamli texnologiyasi;
- 2) elektron-modulli texnologiya;
- 3) masofaviy ta'lim texnologiyasi;
- 4) mustaqil ta'lim texnologiyasi;
- 5) individual yondashguv texnologiyasi;
- 6) Internet ta'limi texnologiyasi;
- 7) milliy portallar texnologiyasi;



8) mohir pedagoglarning shaxsiy texnologiyasi.<sup>i</sup>

Mazkur raqamli texnologiyalar turlaridan maktab muhiti va imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Misol uchun, bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablari zamonaviy kompyuter jihozlari bilan ta'minlangan. Shu sababli boshlang'ich ta'limda kompyuterli dasturga asoslangan o'qitishning raqamli texnologiyasidan foydalanish qiziqarliligi, tezkorligi va samaradorligi bilan muhim ahamiyatga ega. Buning uchun quyidagilar amalga oshirilishi kerak bo'ladi:

- a) mavzularning kompyuterli variantlarini tayyorlash;
- b) kompyuterli variantlarni o'quvchilarga taqdim etish va ulardan foydalanish bo'yicha mexanizmlarini yaratish;
- v) virtual aloqa vositasida o'quvchilarga tegishli mavzular bo'yicha bilim va ko'nikmalar berish;
- g) tayyorlangan o'quv materiallarini animatsion va multimediyali tasvirlarga boy tarzda taqdim etish;
- d) o'quvchilarning o'zlashtirish jarayonini nazorat qilish metodikasini belgilab qo'yish.

Raqamli texnologiyalarning afzalliklari va kamchiliklariga to'xtalib o'tamiz.

Texnologiyalar o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, bilimlarini ko'rish orqali yodda saqlashni osonlashtiradi. Har bir o'quvchining qobiliyat va qiziqishlariga mos ravishda materiallarni tanlash imkoniyati mavjud. Masalan: O'quv dasturlari o'quvchilar bilim darajasini tahlil qilgan holda shaxsiy tavsiyalarni taqdim etadi. Raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonini vaqt va joyga bog'liq bo'lmagan tarzda olib borishga imkon beradi. Ushbu maqoladan ehtimoliy kamchiligi nimadaligi haqida ham ma'lumot beriladi. Bolalarning haddan tashqari ekran qarshisida vaqt o'tkazishi salbiy ta'sir o'tkazishi mumkin. Shu sababli raqamli texnologiyalardan foydalanishda me'yorni saqlash zarur.<sup>ii</sup>



## **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalarni qo'llash zamonaviy ta'lim jarayonini takomillashtirishda muhim vositalardan biridir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli vositalar yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarining e'tibor va xotirasini rivojlantirishning ijobiy natijalarini ko'rsatgan. Shu bilan birga, o'yinlashgan platformalar va virtual darslar yordamida bilimlarni chuqurroq o'zlashtirish imkoniyati mavjud. Kelajakda raqamli vositalar orqali ta'lim jarayonining innovatsion metodlarini kengaytirish ustida ish olib borish zarur. Bu esa yosh avlodning kognitiv ko'nikmalarini rivojlantirishga va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- [1] <https://cyberleninka.ru/article/n/boshlang-ich-ta-limda-raqamli-texnologiyalarning-ahamiyati/pdf>
- [2] [https://www.herald.kokanduni.uz/index.php/public\\_html/article/download/576/362](https://www.herald.kokanduni.uz/index.php/public_html/article/download/576/362)
- [3] <https://maktabgacha-va-maktab-talimi.jurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/945?articlesBySameAuthorPage=32>

---

<sup>i</sup> <https://cyberleninka.ru/article/n/boshlang-ich-ta-limda-raqamli-texnologiyalarning-ahamiyati/pdf>

<sup>ii</sup> <https://maktabgacha-va-maktab-talimi.jurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/945?articlesBySameAuthorPage=32>